O’ZBEKISTON SSR DA YENGIL SANOAT SOHASINING RIVOJLANISH JARAYONIDA IPAKCHILIK TARMOG’INING O’SIB BORISHI

Botirova Nargiza Zoxidjonovna
O’z MU tarix yo’nalishi 2 kurs magistranti
nargizabotirova980@gmail.com

Annotasiya: O’zbekiston tarixining SSSR davri ishlab chiqarish sohalarining alohida-alohida hususiyatlari mavjud bo’lib, ipakchilik tarmog’ining rivojlanish davri va uning huquqiy asoslari quyidagi manbaalar asosida tahlil etildi.

Kalit so’zlar: Pilla, ipak, O’zbekipaksanoat, “Ipak texnologiyasi”, fabrika, zavod, “Ipakchilik bosh boshqarmasi”.

РОСТ ШЕЛКОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРИОД РАЗВИТИЯ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКСКОЙ ССР

Ботирова Наргиза Зохиджоновна
Магистрант 2 курса исторического факультета родного МУ
nargizabotirova980@gmail.com

Абстрактный: Выявлены особенности производственных отраслей периода СССР в истории Узбекистана, проанализированы период развития шелковой промышленности и ее правовые основы на основе следующих источников.

Ключевые слова: Кокон, шелк, Узбекипаксаноат, «Шелковые технологии», фабрика, фабрика, «Главное управление шелковой промышленности».

HE GROWTH OF THE SILK INDUSTRY DURING THE DEVELOPMENT OF THE LIGHT INDUSTRY IN THE UZBEK SSR

Botirova Nargiza Zokhidjonovna
He is a 2nd-year master’s student in the history department of his own MU
nargizabotirova980@gmail.com

Abstract: There are specific features of the production sectors of the USSR period in the history of Uzbekistan, the period of development of the silk industry and its legal foundations were analyzed based on the following sources.

Keywords: Kokoon, silk, Uzbekipaksanoat, "Silk technology", factory, "Main Department of Silk Industry".

Mamlakatimiz tarixini har qaysi sohasida o'rganishimiz va uni asosli materiallarda tahlil etishimiz bizga shu sohani bizgacha yetib kelish jarayoni, taraqqiyoti, aholi hayotiga bevosita ta'sir jarayonlarini o'rganish imkonini beradi. Shuningdek Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston tarixini tub o'zgarish davri deb hisoblash mubolag'a emas, har bir sohaning o'ziga hos qonuniy asoslarini yaratilishi va bu jarayon aholi hayotining mehnat tarzining turli omillarini belgilab berganini guvohi bo'lamiz. Insoniyat tarixida ming yillik tarixiga ega ipakchilik O'rta Osiyo aholisi turmsh tarziga singib ketgan sohalardan biridir. Bu sohani sanoat sohasi sifatida o'rganganimizda: Ipakchilik sanoati - yengil sanoat tarmoqlaridan biri. Asosan, tabiiy va sun'iy ipak tolasi, yigirilgan ipak, sintetik hamda har xil tabiiy va sun'iy tolalar birikmasidan ipak (shoyi) gazlamalar to'qib chiqaradi.

Sobiq Sovet Ittifoqining mustamlaka davlatlarini hududiy chegaralanishi 1924-yildan so'ng, bu hududlarda ishlab chiqarish sohalarini turli yo'nalishlarda rivojlantirish va aholining ishchi kuchi sifatidagi faoliyatini maksimal darajada foydalanish rejasiga ko'ra ipakchilik ham to'qimachilik sohasi singari keng tarmoqda rivojlanish asoslarini yaratdi. Pilla yetishtirish sohasining tarmoqlarini uzviy rivojlantirish barobarida 1927-1932-yillarda Samarqand, Buxoro, Marg'ilon shaharlarida ham pillakashlik fabrikalari qurildi. Ayni paytda pillakashlik fabrikalarida olingan ipak toladan shoyi to'qish ham rivojlandi. Marg'ilon atlas (1925), Namangan gazlamalar (1925), Marg'ilon shoyi (1928), Samarqand shoyi (1934), Qo'qon shoyi to'qish fabrikasi (1926) ishga tushirildi. 1937-yilga qadar shoyi gazlamalar tabiiy ipakdan tayyorlanar edi. Kimyo sanoatining rivojlanishi natijasida sun'iy ipak gazlamalar to'qish ham keng taraqqiy etdi.

Ipakchilik sohasida Butunittifoq ko'rgazmalari tashkil etilgan edi. Masalan 1940-yilda 15-maydan 15-oktyabrgacha Moskvada qishloq xo'jalik maxsulotlari ko'rgazmasida O'zbekistondagi ipakchilik sohasining vakillaridan Lenin nomli kolxoz a'zosi Yusup Rasulov erishgan yutuqlari ish uslublari bilan ishtirok etgan edilar[153]. Bundan tashqari Jvirblis, Suxanov, Tubalovlar ham ishtirok etgan edilar. Tabiiy ipak matosi har qaysi davr uchun muhim va o'z qimmatini saqlab qoladigan, xaridorgir xomashyodir. Qo'lbola soxta ipak mato sotuvchilar ham ko'payib ketgan edi.

1955-yildan pilla tortish avtomatlari sinovdan o'ta boshladi va Marg'ilon, Buxoro, Toshkent pillakashlik fabrikalari hamda boshqa qator korxonalarda muvaffaqiyatli ishlay boshladi. Marg'ilonda ham shoyi kombinatida ham rekonstruksiya ishlari olib borildi va 1954-1955-yillarda bu yerda yangi to'quv

[153] Алимова Н.О.Ўзбекистонда ипакчиликнинг аҳволи ва трансформация жараёни (1865-1991-йиллар) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссиртацияси. –Тошкент., 2018. -Б .131

stanoklar, ko’pgina yigiruv urchuqlari va pardozlash mashinalari o’rnatildi. Shu yillarda kombinatda guldor gazlamaning 132 dan ortiq nusxasi o’zlashtirildi. Ayniqsa, KPSSning XX s’ezdi 1959-1965-yillarida qabul qilingan “besh yillik reja” sining bajarilishi Qo’qondagi sanoat korxonalarida qishloq xo’jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,5 barobarga ko’paytirish reja qilib belgilandi. Qo’qon sanoat korxonalarining soni ortishi sezilarli tarzda oshib borgan edi. 1950-yilllardan boshlab ushbu ipakchilik sohasiga oid dissertasiya tadqiqotlari olib borilgan. Ularda ipakchilik sanoatining holatlari, Marg’ilon ipakchilik korxonasi ishchilarining maishiy, madaniy hayoti, O’zbekistonda pilla yetishtirish masalalari, pillakashlik fabrikalarining faoliyati, ushbu sohadagi muommolar yoritilib o’tilgan. Keyingi yillarda 1960-1970-yillarda O’zbekistondan chetga chiqariladigan mahsulotlar ichida ipak xomashyosi muhim o’rinni egallaydi. Hattoki 1963-yil 15-iyulda Toshkent shahridagi O’rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy rayoni sanoati va qurilish xodimlari partiya xo’jalik faollarining yig’ilishida ipakchilik sanoatini ixtisoslashtirish 9,5mln metrga oshirish, trikotaj sanoatida ishlab chiqarish mutaxassislari 22%ga ko’paytirish imkonini beradi[154] deb hisoblashgan. 1965-yilda “Atlas” firmasi 12 million so’mlik mahsulot ishlab chiqargan Marg’ilon shahri usha vaqtda ipakchilik mahsulotlarini Markaz tasarrufi bilan Ittifoqning 150 ta omborxonasiga va chet elga jo’natishgan[155]. 1966-yilda yiliga 45 mln metr ipak gazlama ishlab chiqaradigan Namangan shoyi va kostyumbop gazlama ishga tushirildi, viloyatlar shaharlarida filiallari ochildi, ishlab turgan korxonalar kengaytirildi va rekonstruksiya qilindi. Ayni paytda ipakchilik sanoati korxonalari shoyi gazlamalar turlarini ishlab chiqarish bo’yicha ixtisoslashdi, korxonalarda krepdeshin, krepshifon, krepjorjet, ipakdan milliy gazlamalar: atlas, xonatlas, beqasam, shoyi, shuningdek, plashbop, kostyumbop, astarbop gazlamalar, shtanpel, viskoza va aralash tolalardan kiyim-kechak tikiladigan gazlamalar, tukli va jakkard gazlamalar, sun’iy iplardan abrli gazlamalar ishlab chiqarish o’zlashtirildi. Sovet hokimiyati iqtisodiyotiga munosib bo’lgan hususiyatlar miqdor ketidan quvish sharoitida ipak qurti urug’i tarqatilishi 1970-1980-yillarda ko’payib borgan. Kolxoz va savxoz pillakashlari ehtiyojlaridan ortiq ham ipak qurti tarqatilgan. Ko’p xollarda bunday urunishlar ipak qurti urug’larining nobud bo’lishiga olib kelganligi haqida Farg’onadagi “Kuybishev” jamoa xo’jaligi a’zosi Qunduzxon Alijonova bilan bo’lgan suxbatlari orqali ma’lumotlar berilgan[156]. O’zSSRda pillaga ilk ishlovlarini berish va saqlash uchun muassasalarni qurish muhim masalalardan biri bo’lgan va ular bunga jiddiy kirishdilar. Sohani rivojlantirishda moddiy texnik bazani mustaxkamlashga ham alohida e’tibor qaratildi. 1971-1975-yillarda pillaga ishlov beradigan 35 ta muassasalar

[154] O‘zMDA 2312-Fond,1- ro‘yxat, 6-yig‘ma jild, 5-varaq

[155]Алимова Н.О.Ўзбекистонда ипакчиликнинг аҳволи ва трансформация жараёни (1865-1991-йиллар) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссиртацияси. –Тошкент., 2018. -Б . 136 .

[156]Алимова Н.О.Ўзбекистонда ипакчиликнинг аҳволи ва трансформация жараёни (1865-1991-йиллар) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссиртацияси. –Тошкент., 2018. -Б .113.

qurdi va 11 tasi qaytadan ta’mirlandi va har yili 600-650 pillani qabul qiluvchi punktlar qurilar edi[157]. Shunday bo’lishiga qaramasdan pillaga narx juda past qo’yilgan edi. 1970 yilda bir kilogramm pilla narxi 4 so’m tannarxi esa 7 so’mga tushar edi[158]. 1980-yilga kelib O’zbekistonda ipakdan ip ishlab chiqarish 1711 tonnani tashkil etdi, 113,8 mln metr shoyi gazlamalar ishlab chiqarildi. Bugungi kunda ipakchilik sanoatining rivojlanishiga bevosita shu vaqtda talab kuchli bo’lganligi bilan izohlanadi. Sovet hokimiyati yillarida dunyo bozorida eng qimmatli bo’lgan ipak mahsulotlari respublikada qat’iy belgilangan bo’lib, arzon narxlarda davlatga topshirilishi O’zbekiston SSR byudjeti va bu sohadagi ishchilarning moddiy ahvolining yaxshilanishiga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Ipak tibbiyot sohasida jarrohlik amaliyotida ingichkaligi, chidamli ekanligi bilan tashqi va ichki jarohatlarni tikishda qo’llanilganligi bilan ahamiyati katta. Yana ipak musiqa asboblari jarangdorligini oshirishda ham qo’llaniladi. Bundan tashqari parashyutlar ishlab chiqarishda, tank va suv qayiqlarining g’iloflarini yasashda juda kerakli xomashyodir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlab o’tgan edilar, “Pillachilik milliy qadriyatlarimiz, boyligimiz. Undan uch martagacha hosil olish, tayyor mato ishlab chiqarib, katta daromad topish imkoniyati bor[159]”.

Soha rivojlanishinig huquqiy asoslari sifatida o’rganilganda, 1931 yil 3 martda “O’rta Osiyo ipagi” (“Sredazshelk”)[160], 1932 yil 10 avgustda O’zbekiston SSR hududida “O’zbekipaksanoat” (“Uzbekshyolprom”) nomi bilan maxsus ipakchilik trestlari[161] tuzilgan. 1933 yil 22 oktyabrda esa SSSR Yengil sanoati Xalq komissarligi soveti buyrug’iga binoan “O’rta Osiyo ipagi” tresti Farg’ona, Buxoro, Samarqand, Marg’ilon fabrikalari ustidan nazorat o’rnatgan edi. Toshkentdagi “O’zbek ipak sanoat” tresti “Turkmaniston ipak sanoati” tresti va “Tojikiston ipak ishlab chiqarish” tresti hisobiga kengaytirildi[162].

Shu tariqa O’zbekiston SSR yengil sanoatida ittifoq ahamiyatiga molik bo’lgan “O’zbekipaksanoat” tresti tashkil etildi[163]. Ushbu trest ittifoq maqomiga ega bo’lib, Farg’ona, Marg’ilon, Samarqanddagi fabrikalar bilan birga Turkmaniston, Tojikiston ipakchilik korxonalarini ham o’z tasarrufiga oldi. 1940 yili “O’zbekipaksanoat” tresti O’zbekiston SSR to’qimachilik Xalq komissarligi tarkibiga o’tdi. O’zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1946 yili 29 yanvardagi qaroriga ko’ra O’zbekistonda ipakchilik va tutchilik sohalari birlashtirilib, “O’zbekipaksanoat” tashkil etildi[164]. Umuman, 1940-yillarga kelib O’zbekistondagi pillachilik fabrikalarida 9833 tonna pilla qayta

[157] O‘sha asar -Б .119
[158] O‘sha asar -Б .121
[159] Hosildor tut navi Prezidentimizda katta taassurot qoldirdi // http://president.uz/uz/lists/view/1738 19.05.2022.
[160] ЎзМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 380-йиғмажилд, 22-варақ.
[161] ЎзМА, Р-837-фонд, 10-рўйхат, 412-йиғмажилд, 3-варақ.
[162] ЎзМА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1164-йиғмажилд, 12-варақ.
[163] ЎзМА, Р- 837-фонд, 11-рўйхат, 38-йиғмажилд, 150-варақ.
[164] ЎзМА, 1-фонд, 15-рўйхат, 90-йиғмажилд, 7-варақ.

ishlanib, shoyi gazlamalar ishlab chiqarildi. 1940-1970-yillarda respublikada pilla yetishtirish deyarli 3 baravar ko'paydi, ipakchilik u yerda yuqori o'sish sur'atlariga erishildi. Ipakchilik sohasi II jahon urushi davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Pilla yetishtirish bo'yicha O'zbekiston butun Ittifoqning 1940-yilda 47,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1945-yilga kelib 59,3 foizga yetdi. Urush davrida dehqonlar 54067 tonna pilla yetkazib berdilar[165]. Ya'ni 1941-yilda 12189 tonna, 1944-yilda 10300 tonna pilla tayyorlagan edilar[166].

1948 yilda "O'zbekipaksanoat" tresti O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufiga o'tkazildi. 1953 yil 4 mayda "O'zbekipaksanoat" funksiyalari qayta tashkillashtirib, "Ipakchilik bosh boshqarmasi"ga ("Glavuposhelk")ga aylantirildi. "Ipakchilik bosh boshqarmasi" O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibida faoliyat yuritib, yuridik shaxs sifatida o'zining huquqlariga va gerbli muhriga ega bo'ldi. O'zbekiston "Ipakchilik bosh boshqarmasi" tarkibiga viloyatlar ipakchilik idoralari (keyinroq viloyat ipak tresti deb nomlangan) – Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpoq ASSR ipakchilik idorasi va Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Namangan, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Shaxrisabz, Urganch ipak qurti urug'chiligi hamda Samarqand urug'-seleksiya ipakchilik stansiyalari kiritildi[167].

Ipakchilik sohasini rivojlantirilishi natijasida O'zbekiston SSR ittifoq miqyosida asosiy ipak mato yetishtirib beruvchi respublikaga aylandi. Bu jarayonda sohani yanada takomillashtirish maqsadida 1950 yillarda 30 mln.dan ortiq tut daraxtlari ekildi. Masalan, Farg'ona viloyati Oxunboboyev ishlab chiqarish birlashmasidagi "Leningrad" kolxozi pillachilik yaxshi rivojlangan xo'jalik hisoblangan. Kolxoz tutzorlari 180 gektarni tashkil etib, ularda 168.100 tup tut ekilgan. Unga yana qo'shimcha ravishda har yili 5-7 gektar yerda tutzor barpo qilib borilgan[168]. Bu davrda respublika SSSR bo'yicha ishlab chiqarilgan ipak matoning 56,4 foizi, ipak xom ashyosining 37,2 foizini yetkazib berdi. Lekin, bu sohada ham dastlabki yillardan muammolar bor edi. Jumladan, pilla quritadigan uskunalar eski bo'lib, bu tarmoqda ishlovchilarning o'zi uskunalardan to'g'ri foydalana olmadi. Natijada birinchi sort ipak tolasi 50,5 foizdan 1960 yilga kelganda 24,7 foizga tushib ketgan bo'lsa, SSSR bo'yicha 52,3 foizdan 37 foizga tushib qoldi[169]. Sovet hokimiyati yillarida "Turkipak", "Davlat savdo (Gostorg)", Viloyat savdo- sanoat (Oblpromtorg)", "Shahar savdo-

[165] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. -Тошкент,: Шарқ, 2000. -Б.448.

[166] Алимова Н.О.Ўзбекистонда ипакчиликнинг аҳволи ва трансформация жараёни (1865-1991-йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссиртацияси. –Тошкент., 2018. -Б.116.

[167] ЎзМА. 1-фонд, 15-рўйхат, 90-йиғмажилд, 8-варақ.

[168] Исмоилов Э. Ипак манбаи (Фарғона область Охунбобоев ишлаб чиқариш бошқармасидаги "Ленинград" колхозининг иш тажрибасидан). – Тошкент: Ўздавнашр, 1964. – 26 б.

[169] Искандеров И. Текстильная промышленность Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 93.

sanoat (Gorpromtorg)”, “Qishloq matlubot ittifoqi (Selpo)” kabi tashkilotlari O’zbekiston hududida ipak mahsulotlari bilan oldi-sotdisi bilan shug’ullanishgan[170].

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston SSRda ipak mahsulotlarining ichki va tashqi savdosi boshqaruvi to’liq markaz qo’l ostida bo’lgan. Yetishtirilgan pilla va undan olingan xomashyo va tayyorlangan ipak matolariga daromadiga ham egalik qilishmagan. Sovet hokimiyati yillarida monopoliya kuchayib, arzon narxlarda, arzon ishchi kuchi evaziga yaratilgan mahsulotlar SSRda tayyorlangan belgi ostida bozorlarga chiqarilgan. Ipakchilik bilan shug’ullangan insonlar mehnat muhofazasi yillar davomida hal qilinmagan masalalardan biri bo’lib kelgan. Marg’ilon shahridagi ipakchilik kombinati fabrika binosida issiqlik manbalari trubalar va havo shamollatish tizimi to’liq jihozlanmagan va ishchilarga ham uy-joy to’liq berilmagan edi[171]. Fabrikalardagi gigenik holatlar yaxshi emasligi oqibatida turli xildagi kasalliklar bilan insonlar kasallangan edi, ya’ni : nafas qisishi (bronxial astma), dermit, angina, o’tkir tumov, faringit, loringit kabilar insonlarni zararlar edi. Bu kasalliklar bilan insonlar uzoq yillar kurashib keldi. 1958-yilga kelganida O’zbekistondagi Marg’ilon ipakchilik kombinatida avtomatik tarzda pillani qayta ishlash boshlandi va 1960-yilga kelib keng yoyildi[172]. Ma’lumki Marg’ilon ipak yigirish fabrikasida pillakashlik har yili 125 tonna yigirilgan ipi ishlab chiqariladi[173]. Maxsulot turini ko’paytirish va xomashyo resurslaridan to’liq foydalanish maqsadida “Ipak tehnologiyasi” kafedrasi olimlari hamkorligida ikkilamchi ipak chiqinidilariga lavsan va viskoza tolalarini aralashtirib yuqori chiziqli zichligidagi apparat ipini ishlab chiqarish tehnologiyasi taklif qilindi va tajriba uchastkasi yaratildi. Bu iplardan mebellar uchun, yengil avtomashinalar o’rindiqlarini qoplash uchun va boshqa sohalar uchun matolar olinmoqda. Hozirgi vaqtda ishlatiladigan transport belbog’lari uchun paxta belbog’i o’rniga viskoza tolasi, lavsan, anid va kaprondan yasalgan matolar ishlab chiqilgagan bo’lib, ular egilishiga chidamliligi 80 dan 200 kg/ smgacha bo’lgan. 1971 yilda “Qizil Qalampir” zavodida gazlamalar 40,8 mln m2 kimyoviy tolalardan foydalangan holda ishlash rejalashtirilgan. Bu ishchi kuchiga bo’lgan ehtiyojni 860 kishiga kamaytirdi va paxta iste’molini 15 mingga kamaytirdi. Sovet hokimiyati yillarida mehnat muhofazasi bilan bog’liq bo’lgan muommolar o’rtaga tashlangan edi. 1962-yil 5-6-sentyabr kunlari O’rta Osiyo ipakchilik ilmiy tekshirish instituti (CANIISH) tashabbusi Farg’ona vodiysidagi Andijon tibbiyot institutida ilmiy-amaliy anjuman bo’lib o’tgan va Marg’ilonda ham sanitariya-gigena muommolariga bag’ishlangan anjuman ham bo’lib

[170]O‘sha asar. -Б.155.

[171] O‘zR MDA, 95-fond,1-ro‘yxat,1950-ish,13-varaq.

[172] Алимова Н.О.Ўзбекистонда ипакчиликнинг аҳволи ва трансформация жараёни (1865-1991-йиллар) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссиртацияси. –Тошкент., 2018.-Б .145.

[173] Илмий амалий конференсия Пахта тозалаш тўқимачилик ва энгил саноат саноатнинг техника ва технологиясини такомиллаштириш. (14-27-май 1994) тезислари I- қисм. Тошкент. 1994.
Муминов Ҳ . Иккиламчи ипак чиқиндиларини аппарат йигириш теҳнологиясида қайта ишлаш.- Б .99

o’tgan.[174] Anjumanda viloyatlardan juda ko’p tibbiyot hodimlar ishtirok etishdi. Marg’ilonda ipakchilik kombinati va Farg’ona pillakashlik fabrikalarida zararsizlantirilgan ishlab chiqarilgan suvga erishish, avtomatik pilla qayta ishlab chiqishni yo’lga qo’yish, havo shamollatish uskunalarini qayta ta’mirlash muommolarini hal etish dolzarb qilib qo’yilgan edi va masalarani ko’rib chiqish topshirilgan. Lekin yuzaki qilingan tekshiruvlar ijobiy yechim topmadi.

Sovet hokimiyati yillarida “Turkipak”, “Davlat savdo (Gostorg)”, Viloyat savdo-sanoat (Oblpromtorg)”, “Shahar savdo-sanoat (Gorpromtorg)”, “Qishloq matlubot ittifoqi (Selpo)” kabi tashkilotlari O’zbekiston hududida ipak mahsulotlari bilan oldi-sotdisi bilan shug’ullanishgan[175].

Ip-gazlama sanoati yangi texnika bilan ta’minlanayotgan edi. Shu asosga ko’ra bugungi kunda O’zbekiston ipakchilik sohasining uzoq yillik tarixida SSSR davrida tub burilash davri bo’ldi, Aholi bantligini ta’minlash, eksport soxasini oshirish tarmoqli ishlab chiqarish sohasiga asos solindi deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: O’zbekiston, 2017. ‒B. 11
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 -jild – Toshkent,: O’zbekiston, 2018. ‒ B. 45-130.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug’ xalqning ishi xam ulug’, xayoti yorug’ va kelajagi faravon bo’ladi. – Toshkent.: O’zbekiston, 2019. ‒ B. 39.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild. – Toshkent.: O’zbekiston, 2019. ‒B. 176-280.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent.: O’qituvchi, 2021. ‒B. 3.
6. Исмоилов Э. Ипак манбаи (Фарғона область Охунбобоев ишлаб чиқариш бошқармасидаги “Ленинград” колхозининг иш тажрибасидан). – Тошкент: Ўздавнашр, 1964. – 26 б.
7. Shamsuddinov F. Tanishing Farg’ona. ‒Toshkent.: O’zbekiston, 1974.
8. Искандеров И. Текстильная промышленность Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 93.
9. Bedrinssev A.K. O’zbekiston territorial ishlab chikarish komplekslarini shakllantirish. ‒Toshkent.: O’zbekiston, 1982.

[174] Алимова Н.О.Ўзбекистонда ипакчиликнинг аҳволи ва трансформация жараёни (1865-1991-йиллар) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссиртацияси. ‒Тошкент., 2018.-Б. 146.
[175]O‘sha asar. -Б.155.

10. Soliyev A.S., Abdunazarov H. Yengil va oziq-ovqat sanoatining mintaqaviy muammolari. – Toshkent: Fan, 2007.

11. Azlarova M, Shanazarova G. Yengil sanoat texnologiyasi fanidan ma’ruza darslari uchun o’quv-uslubiy majmua. – Toshkent.: Iqtisodiyot, 2017.

12. Raximova G.S. XX asrning 50-90 yillarida Farg’ona vodiysi sanoat rivojining ekologik holatga ta’siri. – Toshkent., 2018.

13. Alimova N.O. O’zbekistonda ipakchilikning ahvoli va transformasiya jarayoni (1865-1991-yillar). diss. – Toshkent., 2018.